

**TALABALARING SHAXSIY – INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI
SHAKLLANTIRISHDA MULOQOT KOMPETENSIYAVIY
METODLARNING AXAMIYATI**

Xojibekova Mushtariy Adxamjon qizi

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti O'zbek tili
pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi*

Abdulxayeva Muazzamxon Mirzoxid qizi

Abdurashidova Gulandom Xusniddin qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ta'lim oluvchilarda shaxsiy-individual faoliyat tajribasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan individual ta'lim jarayonlari ta'sirchanligi, barqarorligini ta'minlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, individuallikka yo'naltirilgan o'qitishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim insонning shakllanishi, uning o'zini, o'z insoniy obrazini, takrorlanmas individualligini, ma'naviyligi, ijodiy individualligini anglashi sifatida talqin etiladi.

Kommunikativlik ish tajribasi og'zaki va og'zaki bo'limgan muloqot darajasiga ta'sir ko'rsatadi va quyidagilarni amalga oshiradi: aloqa o'rnatish va uni saqlab qolish imkoniyatini yaratadi, suhbatdoshlar orasida to'g'ri taassurot paydo qiladi, o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'zining ishonchli pozitsiyasiga ega bo'ladi, manfaatlar muvaffaqiyatli himoya qilinadi, noqulayliklar engillashtiriladi, o'z so'zlari va harakatlarining sabablarini va boshqalarning reaksiyalarini tushunadi. Bunda muloqot mahorati takomillashtipiladi, samarali aloqalar o'rnatiladi, erishilgan bilimlar amaliyotga tatbiq etiladi.

Bugungi keng axborot maydonida insonlarni bir-birlarini to'g'ri idrok qilishlari va shunga xos hulq-atvor shakllarini namoyon qilishlari, jamiyatdagi umumiy ijtimoiy munosabatlar mazmuniga ta'sir qiladi. Ko'p tadqiqotlarda kasbga munosabat asosida shakllanadigan sifatlarni, ya'ni, mehnatsevarlik, tirishqoqlik, maqsadga yo'nalgalilik, vatanga munosabat asosida yotuvchi vatanparvarlik, erksevarlik, sifatlarini kiritishadi. Bizning fikrimizcha, yuqoridaagi xislat va sifatlar bilan bir qatorda milliy harakter tarkibiga yana millatning tafakkur qilish, fikr yuritish xislatlarining o'ziga xosligini ham kiritish mumkin. Pedagogik nuqtai-nazardan shaxs shakllanishida kishilar o'rtasidagi turli xil munosabatlarning vujudga kelishi dastlabki pedagogik jarayonda kuzatiladi.

Ta’lim jarayonida asosiy munosabatlar ta’lim oluvchi bilan ta’lim beruvchi o‘rtasida amalga oshiriladi. Bolalar bilan munosabatda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni nazarda tutilishi muhim. Zero, ta’limda talabalar ishtirokida amalga oshiriladigan uzlusiz ma’naviy tarbiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-muloqot, o‘yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma’naviy-axloqiy tajribasiga e’tibor qaratishni;

-o‘zining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o‘rgatishni;

-ilk ma’naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirishni;

-o‘ziga-o‘zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko‘nikmalarini o‘rgatish kabilardan iborat.

Talabalarning o‘zaro muloqotga kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishda dialogik nutqni shakllantirish, bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so‘zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so‘rash orqali amalga oshiriladi. Talabaning muloqotga ijobiy kirisha olishi so‘zlashuv nutqining takomillashganlik darjasи, lug‘at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga shuningdek, madaniy nutqni egallaganlik darjasи bilan belgilanadi.

Muloqot tushunchasi biror narsa yoki hodisaga nisbatan shaxs fikrlarining ifodasidir. Mazkur qoidada, muloqotning mohiyatiga yorqin ifodalanganligi muhim. Muloqotni shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan inson xulqi sifatida qaralsa, unda muloqotning asosiy birligi xatti-harakatdir.

Ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, ular o‘rtasidagi munosabatni o‘rgangan. Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Farobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi o‘rganlari tug‘ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyligi, ruhi, intellektual va ahloqiy hislatlari, harakteri, dini, urfdodatlari, ma’lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilalar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o‘z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishning eng yetuk maxsuli bo‘ladi, deb ta’kidlaydi.

Talabalarning o‘zaro muloqot vaqtida quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

- psixologik holatini bilish;
- qiziqishlari bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tishi;
- suhbatlarni tashkil etish;
- talabalarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- ma’naviy va intellektual o‘z-o‘zini takomillashtirish;

- pedagogik-psixologik, metodik savodxonligi, fikrlash va madaniyatini yuksaltirish usullarini o‘zlashtirish.

Talabalar olgan bilimlarini kasbiy faoliyat jarayonida bolalar bilan muloqotida quyidagicha tashkil etishlari kerak;

✓ shaxsiy o‘sishga intilishni shakllantirish va ob’ektiv baholash, ta’lim oluvchilarining intellektual takomillashish darajsini oshirish;

✓ ijtimoiy va kasbiy vazifalarni xal etishda fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan foydalanish;

✓ o‘z fikrlarini tizimli erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishslash, ommaviy nutq so‘zlash uchun yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini egallaganlik;

✓ munosabatga kirishuvchanlik va maxsus matnlarni tushunish uchun chet tillardagi bilimlardan foydalanish;

✓ axborotni olish, saqlash va qayta ishslash metod, usul va vositalaridan foydalanish;

✓ global tarmoqlar bilan ishslash;

✓ ta’lim ishtirokchilarining etnomadaniy o‘ziga xosliklarini xisobga olish;

✓ axloqiy me’yorlar va ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish;

✓ ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish, yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

✓ gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta’sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik;

✓ talabalarning muloqotchanlik xususiyatlarini takomillashtirish.

Talabalarning kasbiy kompetentligi va kreativligi, bolalarning tarbiyasi va takomillashishi, bolalarni har tomonlama takomillashtirishda tarbiya turlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish masalalariga to‘xtaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAP PO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillapga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Tapaqqiyot stpategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni

2. Akramova F.A., Lutfullaeva N.X, Xaydarova X.P. «Pedagogik psixologiya» fani (ma’ruzalar matni). - T.: TDIU, 2005 - 201 bet.

3. Umarova M.X., Axmadaliev A.U., To‘raev A.B., Imomov M.P. Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari va innovasiyalari // O‘quv – uslubiy majmua. Toshkent – 2016.

4. Shamshetova A. K. Umumiy psixologiya // o‘quv – uslubiy majmua. O‘zDJTU – 2018. 320 bet.

5. Shomupotova N. Shaxslararo munosabatlar etnopsixologiyasi. / N.Shomurotova – Toshkent, 2017.- 29 b.
6. Otaboyeva, Z. Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community. Общество с ограниченной ответственностью" Агентство перспективных научных исследований" КОНФЕРЕНЦИЯ: 28 декабря 2023 года Организаторы: ООО Агентство перспективных научных исследований (АПНИ).
7. Otaboyeva, Z. G. (2020). Die besonderheit der präpositionen der deutschen sprache. In Развитие науки и высоких технологий как основной источник экономического роста (pp. 18-20).
8. Ibraimov, X., Azimova, Z., & Otaboeva, Z. (2023). Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community. *Science and innovation*, 2(B12), 108-113.
9. Otaboeva, Z. G. (2023). Organizing pedagogical experimental work for the development of a culture of cooperation in the student community of higher education institutions. Экономика и социум, (12 (115)-2), 285-288.

